



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-oktabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 751,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 111,6 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,5 %)ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **S**-Ishlab chiqaradigan sanoat
D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 12,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 21,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -4,2 % ga o'sishi kuzatildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 35,8 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 160,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yanvar- oktabr oylari, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	275,5	156,6	- 118,9




Ishlab chiqaradigan sanoat
Yanvar-oktabr oylarida



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 943,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,5 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2020- yilning yanvar- oktabr oylarida - 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 16,4 % (17,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 16,3 % (13,7 %) va quyi texnologiyalisi – 62,3 % (63,1 %)ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,3 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 36,4 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,5 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 112,0 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,4 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 62,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,6 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 77,5 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da

2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 31,4 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,3 martaga o'sgan), 144,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (0,9 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	26,9	35,6	8,7
Aroq – ming litr 100 % spirt	228,3	236,5	8,2
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	175,4	645,6	470,2
Vino, ming litr	743,0	550,7	-192,3
Un, ming tonna	148,0	144,4	-3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	24,5	31,4	6,9



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 497,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,2 foizga oshganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-oktabr oylari, % da)






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	386,2	366,1	-20,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	32,3	48,0	15,7



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 150,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-oktabr oylari, % da)

2020- yil % da

2021- yil % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	46,5	85,6	39,1
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	11,4	33,0	21,6
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	16,2	20,7	4,5
To'qimachilik chiqindilari, tonna	56,2	27,9	- 28,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 83,9 % ga, oqava suvlarni shlami 2,9 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 27,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11 180,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 63,0 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,4 % (2020- yil yanvar-oktabr oyida 5,5 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 39,1 % ni, shuningdek, Urgut tumani 10,6 % ni, Samarqand tumani 9,9 % ni, Toyloq tumani 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (112,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi (246,5 %), Toyloq (174,6 %), Qo'shrabot (171,1 %), Ishtixon (156,6 %), Kattaqo'rg'on (153,1 %) hamda Bulung'ur (136,7 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-oktabr oyida

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	4372,2	39,1	104,8		290,7	2,6	100,3
Samarqand sh.				Narpay			
	226,3	2,0	104,1		186,2	1,7	93,4
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	227,0	2,0	104,7		477,7	4,3	123,8
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	388,9	3,5	136,7		255,2	2,3	246,5
Bulung'ur				Paxtachi			
	582,2	5,2	87,5		1105	9,9	114,5
Jomboy				Samarqand			
	325,1	2,9	156,6		192,7	1,7	109,3
Ishtixon				Nurobod			
	416,5	3,7	153,1		1182,7	10,6	94,3
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	57,8	0,5	171,1		894,5	8,0	174,6
Qo'shrabot				Toyloq			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,4 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni hamda Jomboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (318,2 %), Paxtachi (228,3 %), Toyloq (199,5 %), Samarqand (139,9 %) hamda Oqdaryo (138,6 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida




	Mird. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mird. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
Samarqand sh.	2868,7	41,9	100,9	Narpay	176,7	2,6	118,3
Kattaqo'rg'on sh.	132,0	1,9	84,8	Payariq	73,6	1,1	56,7
Oqdaryo	103,6	1,5	138,6	Pastdarg'om	189,9	2,8	86,0
Bulung'ur	143,9	2,1	100,2	Paxtachi	118,8	1,7	228,3
Jomboy	409,2	6,0	86,3	Samarqand	578,9	8,5	139,9
Ishtixon	144,8	2,1	91,0	Nurobod	85,1	1,2	90,0
Kattaqo'rg'on	188,9	2,8	109,6	Urgut	984,2	14,4	102,7
Qo'shrabot	32,4	0,5	318,2	Toyloq	614,1	9,0	199,5

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 34,7 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 12,1 % ni, Pastdarg'om tumani esa 6,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Ishtixon tumani (372,4 %), Paxtachi tumani (264,8 %) hamda Kattaqo'rg'on tumanida (228,3 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	1503,5	34,7	113,2		114,0	2,6	81,2
Samarqand sh				Narpay			
	94,4	2,2	152,7		112,5	2,6	162,4
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	123,4	2,8	86,9		287,8	6,6	174,6
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	244,9	5,6	174,0		136,4	3,1	264,8
Bulung'ur				Paxtachi			
	173,1	4,0	90,7		526,3	12,1	95,5
Jomboy				Samarqand			
	180,3	4,2	372,4		107,6	2,5	131,5
Ishtixon				Nurobod			
	227,6	5,3	228,3		198,5	4,6	67,2
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	25,4	0,6	107,7		280,4	6,5	137,1
Qo'shrabot				Toyloq			




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 7 160,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi %da			O'sishi %da		
	17 751,0			100,0			111,6		
ViLOYAT									
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	8033,9	45,3	109,8		463,2	2,6	98,3		
Samarqand sh.			Narpay						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	291,5	1,6	101,0		363,4	2,0	103,6		
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	460,5	2,6	107,5		653,7	3,7	101,9		
Oqdaryo			Pastdarg'om						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	406,8	2,3	105,8		309,4	1,7	117,3		
Bulung'ur			Paxtachi						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	1886,3	10,6	105,0		1434,6	8,1	115,6		
Jomboy			Samarqand						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	410,3	2,3	111,2		212,7	1,2	113,4		
Ishtixon			Nurobod						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	520,3	2,9	110,2		1336,9	7,5	104,7		
Kattaqo'rg'on			Urgut						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	62,2	0,4	104,3		905,2	5,1	133,6		
Qo'shrabot			Toyloq						




Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Toyloq (2020- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan 133,6 %), Paxtachi (117,3 %), Samarqand (115,6 %), Nurobod (113,4 %) hamda Samarqand shahri (109,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati,% da






Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,3 % ni), hamda Jomboy (10,6 %), Samarqand (8,1 %), Urgut (7,5 %), Toyloq (5,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,4 %) hamda Nurobod (1,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (14 459,9 ming so'm), Jomboy tumani (10 621,1 ming so'm) va Samarqand tumani (5 554,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 462,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Qo'shrabot (462,4 ming so'm), Payariq (1415,6 ming so'm), Ishtixon (1 575,1 ming so'm) va Nurobod (1 381,2 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	4462,0		2810,5		
Viloyat					
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	14459,9	7869,4		2136,8	1340,7
	Samarqand sh.			Narpay	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3199,6	2484,3		1415,6	725,3
	Kattaqo'rg'on sh.			Payariq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2825,1	1392,7		1802,8	1317,5
	Oqdaryo			Pastdarg'om	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2129,9	2036,0		2108,9	1739,4
	Bulung'ur			Paxtachi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	10621,1	3278,4		5554,0	4278,5
	Jomboy			Samarqand	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1575,1	1248,0		1381,2	1251,0
	Ishtixon			Nurobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1866,8	1494,6		2551,4	2257,1
	Kattaqo'rg'on			Urgut	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	462,4	429,6		4370,9	4319,2
	Qo'shrabot			Toyloq	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 393,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,6 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur, Qoʻshrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqoʻrgʻon (80,6 %), Urgut (74,5 %) tumanlarida va Kattaqoʻrgʻon shahar (78,2 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichik ulush Narpay (20,6 %), Ishtixon (25,9 %), Samarqand shahar (24,9 %) va Toyloq (31,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8 190 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 698 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,3 %ni) Samarqand shahriga, 1 198 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 772 tasi (9,4 %) Samarqand tumaniga, 752 tasi (9,2 %) Pastdarg'om tumaniga, 509 tasi (6,2 %) Ishtixon tumaniga, 390 tasi (4,8 %) Jomboy tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1698 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 230 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,5 %) Urgut tumanida, 223 tasi (13,1 %) Samarqand shahrida, 190 tasi (11,2 %) Samarqand tumanida, 189 tasi (11,1 %) Pastdarg'om tumanida hamda 116 tasi (6,8 %) Kattaqo'rg'on tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 748 ta), Urgut (1198 ta), Samarqand (772 ta), Pastdarg'om (752 ta), Ishtixon (509 ta) va Jomboy (390 ta) tumanlari qayd etildi.



2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo'shrabot (152 ta), Nurobod (182 ta), Narpay (225 ta), Paxtachi (227 ta), Bulung'ur (306 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida (289 ta) qayd etildi.